



HUDUDLARDA AGROTADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

*Иқтисодиёт ва педагогика университети “Iqtisodiyot” kafedrası
dotsenti*

[e.mail: qurbonov7721@mail.ru](mailto:qurbonov7721@mail.ru)

Annotatsiya: *Maqolada tadbirkorlikning xos xususiyatlari va unda tadbirkorlikning o‘rni asoslangan. Shuningdek, agrotadbirkorlik sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari urganilgan va tahlil etilgan. Tadbirkorlikning rivojlanishi kursatkiqlari tahlil etilgan va prognoz kursatkiqlari ishlab chiqilgan. Agrosanoat majmuida tadbirkorlikga moyillik darajasi hisoblangan Qishloq xo‘jaligi sohasida mutaxassislarining yetishmovchiligi va tadbirkorlikdagi mavjud muammolarning yechimi bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, agrotadbirkorlik, texnologiya, smaradorlik, tadbirkorlikga moyillik darajasi.*

Annomsia: *В статье основана на специфических чертах предпринимательства и роли предпринимательства в нем. Также были изучены и проанализированы мнения ученых, проводивших научные исследования в сфере агропредпринимательства. Проанализированы показатели развития бизнеса и разработаны прогнозные показатели. Даны предложения и рекомендatsii по дефициту специалистов в области сельского хозяйства и решению существующих проблем в сфере предпринимательства.*

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, предпринимательство, агробизнес, технология, предпринимательство, уровень предпринимательства.*



Annotation: *The article is based on the specific features of entrepreneurship and the role of entrepreneurship in it. The opinions of scientists who conducted scientific research in the field of agricultural entrepreneurship were also studied and analyzed. Business development indicators are analyzed and forecast indicators are developed. Suggestions and recommendations are given on the shortage of specialists in the field of agriculture and the solution of existing problems in the field of entrepreneurship.*

Key words: *Agriculture, entrepreneurship, agribusiness, technology, entrepreneurship, level of entrepreneurship.*

Kirish

Respublikamizda agrosanoat majmuasini rivojlantirish hozirgi kunning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Faqat uning rivojlanishini kuchaytirish hisobiga mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini bozor iqtisodiyoti talablari asosida mustahkamlash va milliy boyligini o'sib borishi uchun mavjud bo'lgan zahiralardan foydalanishga imkoniyat yaratiladi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish ikkita asosiy yo'nalishning rivojlanishiga bog'liq. Birinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirib borish, ikkinchidan, uni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga bog'liqdir. Bu ikki masalani ijobiy hal qilishning ushbu sohasi kichik tadbirkorlikni kuchaytirishga bog'liqdir.

Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida va unda yaratilgan mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash, qishloq xo'jaligi va sanoatning integratsiyalashuvi asosida olib borilishini talab etadi. Bu qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni yil davomida qondirishni ta'minlaydi. Ishlab chiqarilgan ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ridan-to'g'ri iste'molga yo'naltirilsa, ayrimlari esa qayta ishlash orqali tayyor mahsulotga aylantiriladi.

Adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlik muammosiga hozirgi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari asosida tadbirkorlikning mohiyatini tahlil qilgan holda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish



mumkin: Birinchi yoʻnalish- tadbirkorlik bu foyda olish uchun yoʻnaltirilgan mustaqil iqtisodiy faoliyatdir.

Ikkinchi yoʻnalish – tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishni inkor qilmay, balki tadbirkorlik mohiyatini aniqlovchi sifatida, resurslarning yangi kombinatsiyalarini amalga oshirishda munosabatlar yigʻindisiga asoslangan holda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish hamdir [4].

Uchinchi yoʻnalish – tadbirkorlik faoliyatini resurslarning harakatini boshqarishda ijodkorlik zarur, deb hisoblanadi. Ulrga D.V.Busygin [5] V.D.Kamaev [7], I.N.Gerchikova [6], F.M.Rusinov [8] va boshqalarni kiritish mumkin. Bu olimlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik oddiy mehnat faoliyati emas, balki ijodiy aktivlik sifatida aks ettirilgan.

A.N.Asaul [1] fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning oʻziga xos turi boʻlib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali oʻz aʼzolarining oʻziga xos ehtiyojlariga boʻlgan jamiyat talabini ragʻbatlantirish va qondir ishdan iborat boʻlib, bozor muvozanati buzilishi orqali raqobatdosh ustunliklarga ega boʻlishga qaratilgan. Qishloq xoʻjaligida tadbirkorlik maʼlum bir subʼektlar va tadbirkorlik faoliyatining obʼektlari ishtirokini oʻz ichiga oladi. I.V. Ukrainsevaning soʻzlariga koʻra [2], xoʻjalik yurituvchi subʼektlar – bu xoʻjalik faoliyatini olib boradigan va toʻliq javobgarlikni oʻz zimmlariga oladigan tadbirkorlarning oʻzlari deb taʼkidlaydi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi va vazifalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, mintaqada bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitini yaratish ustuvor yoʻnalish hisoblanishi kerak. Mustaqillikning birinchi kunlaridayoq bozor iqtisodiyotiga erkin raqobat muhitini yaratish uchun barcha davlat korxonalarini xususiyalashtirish asosida turli mulkchilik subʼektlari tashkil etildi. Kichik tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotga keng tadbiq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya xarajatlarining kamayganligi,



ro'yxatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni jadal oshib, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Shunday say'–harakatlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etilib, ularning soni Qashqadaryo viloyatida 2024 yilning 1-yanvar holatida 78552 tagacha yetdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining o'sishini qisqa muddatli prognoz asosida ko'rishimiz mumkin. Qisqa muddatli prognozni amalga oshirish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$y_{t+1} = m_{t-1} + \frac{1}{n}(y_t - y_{t-1}) \quad (1)$$

y_{t+1} - prognoz ko'rsatkichi

$t+1$ - prognoz qilinayotgan oraliq

m_{t-1} - prognoz qilinguncha davr oralig'i

Ekstropolyatsiyaning prognozni aniniqlash mezoni ko'rsatkichi bo'yicha aniqlik yuqoriligini bildiradi.

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2027 yilda 2020 yilga nisbatan 1,8 barobar ko'payib, 2027yilda 2020 yilga nisbatan 33176 birlikka oshishi kutilmoqda (1-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyati tarmoqlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari sonining 2026-2027 yillarda o'sish prognozi

Koʻrsatkichlar	Yillar						Prognoz		yilda 2027	yilga 2020
	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026	2027		
Tadbirkorlik subʼektlari soni	44295	57903	69845	74024	74875	78552	76819	77471	33176	



O'rtacha sirg'anuvchi koeffitsient	-	573 47	672 57	729 12	738 05	758 13	-	-	-
O'rtacha xatolik ko'rsatkichi	$-\left[\frac{ y_{\phi} - y_{\phi\phi} }{y_{\phi}} * 100\right]$	1	3,7	1,5	1,1	3,5	Σ 10,8		

Viloyatda statistik ma'lumotlarga ko'ra ish qidirib yurganlar 58,2 ming kishini tashkil qilib, mehnat birjalarida ishsiz deb e'tirof etilganlar 2532 kishini tashkil qilgan yoki umumiy ishga yaroqlilarga nisbatan 0,002 foizni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati hamda uning tumanlarida kichik va xususiy tadbirkorlikda band bo'lgan aholining tahlili o'rganilganda ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, agrosanoat majmuida o'rtacha aholining 19,7 foizi band, zero kishloq joylarda 56,4 foiz aholi yashaydi. Bu agrar sektorda kichik tadbirkorlik korxonalarida band bo'lganlarning ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, ishga yaroqli aholining o'sish darajasiga nisbatan past darajada ekanligini anglatadi. Bu esa agrosanoat majmuida kichik tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligiga sanoat korxonalarini olib kirish, qolgan tarmoqlarni ham rivojlantirishga asos bo'ladi. Shuning uchun, sanoatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish viloyat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak. Bu borada xorijiy va mahalliy investitsiyalardan keng foydalanish lozim. Viloyatda 2024 yilda jalb etilgan investitsiyalarning 25,2 foizi kichik tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Agrosanoat majmuida investitsiya sohasini kengroq rivojlantirish qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga asos bo'ladi hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmida tadbirkorlik ulushining oshishini ta'minlaydi.

Viloyatda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining 1000 kishiga to'g'ri kelish darajasi 2024 yilda 28,6 tani, 2024-2025 yillarda esa 35,5 - 41,6



tashkil etishi aniqlandi. Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, jumladan, Buxoro viloyatida - 38,7, Navoi viloyatida – 31,2 va Samarqand viloyatida – 48,9 tani tashkil etishi, viloyatda bu sohada chuqur islohotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Viloyatda tarmoqlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari soni ekstrapolyatsiyaning sirg'anuvchi o'rtacha usuli orqali yaqin yillar uchun prognoz qilindi. Prognoz natijasiga ko'ra, viloyatda 2026-2027 yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlari sonining ortishi, ya'ni mos ravishda 76819 va 77471 tani tashkil etishi kutiladi. 2027 yilda 2020 yilga nisbatan 33176 taga ko'payishi kutilmoqda.

Viloyatda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining 1000 kishiga to'g'ri kelish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish lozim bo'ladi. 2026-2027 yillarda ushbu darajani 60-70 taga yetkazish, viloyatda aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etishga va ishsizlar sonini deyarli ikki barobarga kamayish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Асаул А. Н. / Организаци́я предпринимательской деятельности: учебник для вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд.– СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6
2. Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве[Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – УРЛ: [хттп://е- концепт.ру/2017/770442.хтм](http://e-concept.ru/2017/770442.htm)
3. Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2020. – УРЛ: [хттпс://www.гд.ру/артислес/9254-ккк-17-м6-02-06-2020-перспективй-селского-хозяйства](https://www.гд.ру/артислес/9254-ккк-17-м6-02-06-2020-перспективй-селского-хозяйства)
4. Бусыгин А.В. Предпринимательства: Основной курс. –М.: «ИНФРА-М» 1997.-608 с.
5. Герчикова.И.Н. Менеджмент.-М.:ЮНИТИ,2007.-418с.



6. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент: Экспресс- курс.-СПб.: «Питер», 2007. - 496с.
7. Русинов.Ф.М. Возраждения предпринимательство в России. Майкоп:1999 27-28 с.
8. Kurbonov A. B., Shoxo'jaeva Z. S. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – Т. 8. – №. 6. – С. 5123-5126.
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41643092>